

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA EKSPERIMENTLAR - AMALIY TAJRIBALAR O'TKAZISHNI TASHKIL ETISH

Murodova Shaxlo

*Buxoro pedagogika kolleji Rivojlanish markazlarida bolalar
faoliyatini tashkil etish o'quv amaliyoti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, maktabgacha ta'lim muassasalarida eksperimentlar - amaliy tajribalar o'tkazishni turli yosh guruhlariga ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: eksperiment, tajriba, sinov, yosh guruhlar, ko'rgazmalar tadqiqot, tarozi, lupa, akvareum, ob-havo, taqvim.

Sinov-eksperimentlar bolalarni atrof dunyoga ijobiy va qiymat-fikriy munosabatda bo'lishga, keyinchalik ilmiy va texnologik yo'naltirilgan dunyoqarashni shakllantirishga hamda ekologik jihatdan maqbul xulq-atvorni shakllantirishga maksimal darajada xizmat qiladigan tarzda tanlangan va tavsiflangan. Eksperimentlar va amaliy tajribalar asosan ilm-fan va tabiat markazida tashkil qilinadi

Ilm-fan va tabiat markazida tajriba sinov maydonchasida o'tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg'otadi va ularni yangi ixtirolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarni tabiat va undagi hodisalarni bilish uchun eng katta imkoniyat markazi hamdir. Markaz faoliyati to'g'ri tashkil etilsa bolalar tabiat haqidagi bilimlarning 90%ini o'zlashtiradi. Markaz nafaqat bolalarda balki pedagoglarda ham qiziqish uyg'otadi. Hayotimiz davomida ishlatiladigan narsalarni qayerdan kelganligini, ulardan nimalar olinganligi haqidagi ma'lumotlar bolalarning o'z qo'llari bilan urug'larni tuvaklarga sepish orqali unga suv qo'yishi va urug'unib chiqishi bola uchun juda qiziqarli holatlar sanaldi

Markaz orqali juda ko'p tajribalarni o'tkazadilar, ularga ruxsat etilmagan ayrim tajribalarni tarbiyachi va kattalar yordamida o'tkazadilar va o'zlari qiziqayotgan narsalarni bilib oladilar. Bolalar tajribalardan juda ham shodlanadilar va o'zlari bajarib, ajoyib tabiat manzarasidan quv naydilar. Tajribalar o'tkazish jarayonida texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilish talab qilinadi. Markazga qo'yilgan jihojlarning barchasi bola hayotiga xavf solishdan yiroq bo'lishi lozim. Tajribalar o'tkazilgandan so'ng markazdan olib qo'yiladi

Tajriba – bu alohida tashkil etilgan sharoitlarda olib boriladigan kuzatish. U bolalarning tabiatga bo'lgan qiziqishini shakllantirishga yordam beradi, kuzatuvchanlikni, aqliy faoliyatni rivojlantiradi

Bolalar eksperimenti – maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim olishini rivojlantiruvchi usullardan biri. Tajriba-eksperimental faoliyat barcha faoliyat turlarini

va ta'limning barcha jihatlarini birlashtirishga imkon beradi, kuzatuvchanlikni, ongning izlanuvchanligini, dunyoni bilish istagini rivojlantiradi, barcha bilim olishga oid qobiliyatlarni, ixtiro qilish, qiyin vaziyatlarda nostandart yechimlardan foydalanish, ijodiy shaxsni yaratishga xizmat qiladi.

Tajriba-sinovlarni tashkil qilishda eksperiment o'tkazish mashg'ulotining taxminiy tuzilishiga rioya qilish tavsiya etiladi:

-Tadqiqot vazifasini u yoki bu shakldagi muammoli vaziyat ko'rinishida olib chiqish.

- Diqqat, xotira, fikrlash mantig'i treningi (mashg'ulotga qadar bo'lgan vaqtda tashkil etilishi mumkin).

-Eksperiment o'tkazish davomida hayot xavfsizligi qoidalarini tushuntirish.

- Tadqiqot rejasini aniqlashtirish.

- Uskunalarni tanlash, uning bolalar tomonidan tadqiqot hududida mustaqil joylashtirilishi (ehtiyojga ko'ra yordamchi bilan).

- Bolalarni kichik guruhlariga taqsimlash, bolalarning guruhlarda birgalikdagi faoliyati borishi va natijalarni sharhlaydigan, tengdoshlarini jamlashga va yo'naltirishga yordam beradigan taqdimotchilar, kapitanlarni tanlash (guruh yetakchilari, agar kerak bo'lsa, yordamchilarni tayinlash).

-Tajriba asnosida bolalar tomonidan olingan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kuzatishlar, o'rganilayotgan obyektlar bilan bevosita aloqaga kirishish, sinov va eksperimentlar o'tkazish istagi kuchli bo'ladi.

Pedagoglarga maslahat: pedagoglar tajriba-sinov faoliyati bo'yicha mashg'ulotlarni shunday tashkil etishlari kerakki, tarbiyalanuvchilarda yangi ma'lumotlarga ega bo'lish istagi birinchi o'rinda tursin. Shuning uchun darslarning boshlanishini diqqatni faollashtirish va har qanday muammoli vaziyatni hal qilish uchun motivatsiyani oshirishga, berilgan savolga javob qidirishga bag'ishlash tavsiya etiladi. Ushbu maqsadlar uchun ko'rgazmali materiallardan foydalaniladi (plakatlar, kartochkalar va otkritkalar, kitobdagi rasmlar, ensiklopediya), harakatli va didaktik o'yinlar, tematik gimnastika va mashqlar, bolalarga shaxsiy tajribadan misollar keltirish imkoniyati beriladigan muzokaralar tashkil etiladi, ertak qahramonlari jalb qilinadi

MTTda tajriba-sinov yo'nalishidagi mashg'ulotlar bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda va sanitariya, gigiyena qoidalariga amal qilgan holga tashkil etiladi:

- kichik guruh - 15 daqiqa;

- o'rta guruh - 20 daqiqa;

- katta guruh - 25 daqiqa;

- tayyorlov guruhi - 30 daqiqa.

Sinov-tajribalarni o'tkazishda ma'lum bir ketma-ketlikka rioya qiling:

- pedagog harakatlarni ko'rsatadi
 - • harakatlar bolalardan biri tomonidan takrorlanadi yoki ko'rsatiladi, e'tiborlisi, harakatlarni noto'g'ri bajarayotgan bola bo'lsin: bu odatiy xatoga diqqatni qaratishga imkon beradi;
 - ba'zan pedagogning o'zi ataylab xato qiladi: shunday uslubiy texnika yordamida pedagog bolalar xato qilish ehtimoli yuqori bo'lgan harakatga e'tibor qaratishga imkon beradi;
 - so'ngra harakatlar xato qilmaydigan bola tomonidan takrorlanadi;
 - harakatlarning hammasi birgalikda, sekin sur'atda amalga oshiriladi, shunda pedagogda har bir bolaning ishini nazorat qilish imkoniyati mavjud bo'ladi;
 - harakatlar tanish bo'lib qolgach, bolalar buni odatdagi sur'atda bajaradilar.
- Eksperimental faoliyat davomida xotirjam, tinch muhitni yarating

Tajriba o'tkazish davomida bolalar:

- moddalarning xossalari haqida tasavvurga ega bo'ladilar;
- materiallarning xossalari va ulardan foydalanish usullari o'rtasida sabab-oqibat aloqalarini o'rnatish ko'nikmasini shakllantirishadi;
- mustaqil xulosalar chiqarish, farazlarni ilgari surish, tahlil qilish kabi ilmiytadqiqot faoliyati ko'nikmalarini hosil qilishadi;
- obyektlar va ularning xossalari haqidagi bilimlarini kengaytirishadi.

Tajriba va sinovlarni o'tkazish bolaga "qanday qilib?" "nima uchun?" degan savollarga o'zi javob topishiga yordam beradi. Bolalar o'rganilayotgan obyektning turli qirralari, uning boshqa obyektlar va atrof-muhit bilan aloqasi haqida chinakam tasavvurga ega bo'ladilar, xotirasini va nutqini boyitadilar, fikrlash jarayonlarini faollashtiradilar, chunki tahlil va sintez, taqqoslash va tasniflash, umumlashtirish operatsiyalarini bajarishga doimiy ehtiyoj sezadilar.

Xulosa:

Eksperiment qilish – maktabgacha yoshdagi bolalarning o'rganish faolligini oshirishdagi yetakchi uslublardan biri. Maktabgacha bo'lgan yoshda tajriba-sinov faoliyati bolaga o'zining o'rganish qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik kabi xislatlarini rivojlantirish, yangiliklar qilish va atrof olam haqida ma'lumotlarga ega bo'lishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta'lim Vazirining buyrug'i. Ro'yxat raqami № 3032. 03.07.2018-y.

2. Grosheva I., Yestafyeva L., Maxmudova D., Nabixanova Sh., Pak S., Nazarova V. G., Abdunazarova N., Isxakova M. “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasalari uchun Davlat o’quv dasturi, to’ldirilgan ikkinchi nashr. Toshkent-2022.

3. Grosheva I., Shivaldova N., Rizayeva X., Kuryayeva I., Nekrasova Y., Xaziyeva L. Ekologik ta’lim va tarbiya bo’yicha Maktabgacha ta’lim muassasalari uchun “Yer sayyorasi – umumiy uyimiz” parsial dasturi. Toshkent-2022.

4. Yestafyeva L., Nabixanova Sh., Pak S., Usmonova D., Ashrabxo’jayeva M., Rizayeva X., Nuritdinova L., Karimova F., Nurmuhamedova G., Muhamadaliyeva M., Musayeva G., Gayfulina F. “Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (katta guruh)”. Toshkent-2018.

5. Yestafyeva L., Nabixanova Sh., Pak S., Isxakova M., Kim N., Rizayeva X., Kayalova Y., Nuritdinova L., Maxmudova V., Vlasova Y., Buyanova N., Daukayeva A., Karimova F. “Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish”. Toshkent-2018.